**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TURSUNMUROTOV DAVRBEK XUDAYOROVICH

KOMPAKTLIK O‘LCHOVLARI BO‘YICHA OBYEKTLAR MUNOSABATLARI TUZILMALARINING TAHLILI

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

**FIZIKA MATEMATIKA FANLARI
BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

O‘UK: 519.95

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PkhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TURSUNMUROTOV DAVRBEK XUDAYOROVICH

KOMPAKTLIK O‘LCHOVLARI BO‘YICHA OBYEKTLAR MUNOSABATLARI TUZILMALARINING TAHLILI

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

FIZIKA MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida №B2025.1.PhD/FM1271 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va “Ziyonet” ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ignatev Nikolay Aleksandrovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kabulov Anvar Vasilovich** texnika fanlari doktori, professor **Xudaybergenov Qabul Qadirbergenovich** fizika-matematika bo’yicha PhD, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning “___”_____ 2025-yil soat____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “____” _____kuni tarqatildi.
(2025-yil “____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M.Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R.Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., professor

D.T.Muxamediyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar, hozirgi kunda axborot texnologiyalarini rivojlanishida berilganlarni intellektual tahlil (BIT) qilish usullari muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. BIT sonli algoritmlarini ishlab chiqishda katta berilganlar muammolari, o‘lcham la’nati tufayli obyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni yuvilib ketishi, texnik qurilmalarda amalga oshirishning kombinator murakkabligi, shovqin obyektlar va alomatlar mavjud bo‘lgan holatlarda maqbul vaqt ichida natijani olishning imkonsizligi bilan bog‘liq muammolarga duch kelinadi. Berilganlarni tahlil qilish va anglash algoritmlarini tanlashni asoslash vositalaridan biri kompaktlik o‘lchovidir. O‘rgatuvchi tanlanma obyektlari o‘rtasidagi turli munosabatlarni ushbu o‘lchovlarning qiymatlarini tadqiq qilish anglash algoritmlarining umumlashtirish qobiliyatini oshirish masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Mazkur yo‘nalishlarda samarali yondashuvlar ishlab chiqish berilganlarni intellektual tahlil qilish oldida turgan muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda berilganlarda turli xatoliklar paydo bo‘lish xavfi mavjud bo‘lganda berilganlar asosida olingan xulosalarning sifatini sezilarli darajada yomonlashishini oldini olish va aniqlangan qonuniyatlar ishonchliligini oshirishga imkon beradigan usullarni yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda, amaliy masalalarni yechishda berilganlarni tahrirlash va tozalash modellari muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, o‘rgatuvchi tanlanma obyektlari o‘rtasidagi turli munosabatlarda ushbu o‘lchovlarning qiymatlarini kuzatish va izohlash, anglash algoritmlarining umumlashtirish qobiliyatini oshirish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt va katta berilganlarni tahlil qilish sohalarida ilmiy va amaliy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Berilganlarni intellektual tahlil qilishning samarali usullarini ishlab chiqish, ularni amaliyotda qo‘llash va umumlashtirish qobiliyatini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda berilganlarning intellektual tahlili usullari va kriteriyalarini ishlab chiqish, tibbiy tashhislashda qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligini oshirish uchun berilganlardan yashirin qonuniyatlarni izlash uslublarini ishlab chiqishda salmoqli natijalarga erishildi. Sun’iy intellektni mashina yordamida o‘qitish uchun katta hajmda davlat tilidagi raqamli ma’lumotlarni shakllantirish, shuningdek, davlat tilidagi nutqni tahlil va sintez qilishni qo‘llovchi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasida ustuvor yo‘nalishlardan etib belgilandi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda o‘rgatuvchi tanlanma obyektlarining zichlik va kompaktlik o‘lchovlarini hisoblash orqali “yaqin qo‘shnilar” turidagi usullarni ishlab chiqish, obyektlar xususiyatlarini baholash uchun k yaqin qo‘shnilarning optimal sonini tanlash metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi to‘g‘risida"gi farmonlarida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-sonli "Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga tatbiq etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorlarida, shuningdek, 2019-yil 24-may kuni O‘zbekiston Milliy universitetida Prezidentning fan va ta’lim sohasi vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Berilganlarni intellektual tahlil qilish (BIT) usullaridan foydalanish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga mashhur xorijiy va mahalliy olimlar katta hissa qo‘shgan. BIT sohasida tadqiqot olib borgan xorijiy olimlar orasida Yu. I. Jurovlev, K. V. Vorontsov, V.N. Vapnik, N. G. Zagoruyko, A. B. Petrovkiy, R.E.Bellman, J.Goodfellow, E.Nadaraya, G.S.Watson va K. V. Rudakovni qayd etish mumkin. BIT sohasida ishlayotgan mahalliy olimlar orasida M. M. Kamilov, Sh. F. Madrahimov, F. T. Adilova, T.F.Bekmuratov, N.S.Mamatov, D. T. Muhammadieva va Sh. X. Fazilov va boshqalarning ishlarida tadqiq qilingan.

O‘rgatuvchi tanlanmada shovqin obyektlar va sachratqilar mavjud bo‘lgan holatlarda anglash algoritmlarini o‘rgatish jarayoni turlicha bo‘ladi. Qarorlar daraxtlarini qurilishida sachratqi obyektlar ishlatilganligi sababli past statistik ishonchlilikka ega daraxt ostilari o‘chiriladi. Boshqa algoritmlarda berilganlarga dastlabki ishlov berish ko‘zda tutilgan bo‘lib bu jarayonda qandaydir mezonlar asosida shovqin obyektlar aniqlanadi va filtrlanadi. Ayrim holatlarda sachratqini tipik obyektga o‘girish maqsadida ayrim alomatlarni sozlashga harakat qilinadi. Berilganlarni bunday turdagi shovqinlardan tozalash uchun konkurent o‘xshashlik funksiyasidan foydalanishga asoslangan yondashuv taklif etiladi. Tanlanmaning ajratilish bahosi maksimal qiymatga erishganda yoki qolgan tanlanmada sachratqi obyektlar yo‘q bo‘lganda, senzuralash jarayoni to‘xtatiladi. Umumlashtirish qobiliyati muammosi mashinali o‘rgatishda asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Algoritmlarni o‘rgatish jarayonida cheklangan miqdordagi pretsedentlarga asoslangan noma’lum bog‘liqlik tiklanadi. Yangi pretsedentlardan tashkil topgan tanlanmani test tanlamasida algoritmning aniqligini bashorat qilish talab etiladi.

Optimal murakkablikdagi algoritmlarni tanlashni baholash mezonlarini izlash davom etmoqda. Yaqin qo‘shnilar toifasidagi usullar uchun bunday baholarni olish

usullaridan biri kompaktlik mezoni bo‘yicha sifat funksionalidan foydalanish hisoblanadi. Mashinali o‘rgatish katta hajmdagi berilganlar bazasini ishlov berish bilan bog‘liqligi sababli, ular uchun dastlab qayta ishlov berish usullarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Dastlabki ishlov berish natijalari bo‘yicha kutilgan natija bu o‘rgatuvchi tanlanmani obyektlar shuningdek alomatlar bo‘yicha seleksiya hisoblanadi. Dastlabki ishlov berish tasniflash algoritmlarini qo‘llashga sezilarli ravishda ta’sir qilishi mumkin. Berilganlarning intellektual tahlili usullari murakkab tizimlarni adaptiv boshqarishda optimal qarorlarni tanlashda kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan keng qo‘llanilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetiining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq «HBV-infeksiyasi sababli kelib chiqadigan jigar sirrozi va gepatokartsinomaga oldindan tashxis qo‘yishning matematik modelini yaratish» doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘rgatuvchi tanlanma obyektlarining zichlik va kompaktlik o‘lchovlarini hisoblash orqali “yaqin qo‘shnilar” turidagi usullarni ishlab chiqish va ularni asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sinflar kompaktlik o‘lchovlarining ekstremumini izlash uchun mezonlar regulyarizatorlardan foydalangan holda, o‘rgatuvchi tanlanmaning etalonlar bilan minimal qoplamasidan pretsedentlar bazasini shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

“yaqin qo‘shni” usullari algoritmlarini umumlashtirish qobiliyatini oshirish uchun sinflarning chegaraviy obyektlari o‘rtasidagi nisbiy chekinish bo‘yicha shovqin obyektlarni tanlashning zarur va yetarli shartini aniqlash;

obyektlar xususiyatlarini baholash uchun *k* eng yaqin qo‘shnilarning optimal sonini tanlash metodikasini ishlab chiqish;

obyektlarni ularning kesishuvchi gipersharlar tizimi bo‘yicha bog‘langanligi asosida guruhlarga ajratish metodikasini asoslash.

Tadqiqot obyekti. Berilganlarni intellektual tahlil qilish usullarini ishlab chiqish va asoslash hamda ulardan bilimlarga asoslangan axborot modellarini shakllantirishda qo‘llash.

Tadqiqot predmeti. Pretsedentlar bo‘yicha qaror qabul qilish masalalarida o‘rgatuvchi tanlanmani seleksiya qilish va obyektlarni guruhlash uchun kompaktlik va taqsimot zichligi o‘lchovlarini hisoblash usullari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida diskret matematika, amaliy statistika, berilganlarni intellektual tahlil qilish usullari hamda algoritmik tillarda dasturlash texnologiyalaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘rgatuvchi tanlanma etalonlari yordamida minimal qoplama masalasini hal qilish asosida pretsedentlar bazasini shakllantirish usuli yaratilgan;

sinflarning chegaraviy obyektlari orasidagi nisbiy chekinish kattaligi bo‘yicha shovqin obyektlarni tanlash uchun zarur va yetarli shartlar ishlab chiqilgan;

obyektlarni ularning taqsimot zichligiga asoslangan holda kategoriyalarga ajratishda, kesishuvchi gipersharlar tizimi orqali bog‘liqlik munosabati yordamida klasterlash sifatini baholash uchun kompaktlik o‘lchovini qo‘llash zarurligi isbotlangan;

sinflar chegarasida joylashgan shovqin obyektlarni aniqlash va ularni olib tashlash uchun yangi regulyarizator ishlab chiqilgan, mezon sifatida o‘rgatuvchi tanlanmaning etalonlar yordamida minimal qoplanishiga asoslangan kompaktlik o‘lchovini maksimal qiymatidan foydalanish usuli yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pretsedentlar bazasini shakllantirish orqali anglash algoritmlari murakkabligini kamaytirish va umumlashtirish qobiliyatini oshirish uchun tanlanma etalonlari yordamida minimal qoplama masalasini hal etish usuli ishlab chiqilgan.

shovqin obyektlarni aniqlash va olib tashlash, shuningdek, informativ alomatlarni tanlash bu tanlanmadagi ortiqcha ma’lumotlarni kamaytirib, modelning aniqligi va barqarorligini hamda samaradorligini oshirish uchun kompaktlik o‘lchoviga asoslangan usul ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi natijalarni izchil solishtirish, mavzuga oid matematik apparat va nazariy yondashuvlardan foydalanish, matematik modellarni qo‘llashning qat’iyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati anglash algoritmlarining umumlashtirish qobiliyatini oshirish uchun berilganlarni intellektual tahlil qilishning yangi usullari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tanlanmadan etalon obyektlarni aniqlash, shovqin obyektlarni ajratib olish hamda informativ alomatlarni kompaktlik o‘lchovi asosida tanlash metodologiyasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan kompaktlik o‘lchovlari bo‘yicha minimal qoplama etalonlarini shakllantirish, obyektlar munosabatlari tuzilmalarining tahlili, kesishuvchi gipersharlar bo‘yicha guruhlarga ajratish ko’rinishdagi ilmiy natijalar asosida:

kompaktlik o‘lchovlari bo‘yicha obyektlar munosabatlarini tahlil qilish metodologiyasidan IL-52421091471 “Suv resurslarini monitoring qilish uchun apparat-dasturiy vositalarni ishlab chiqish” innovatsion loyihasida murakkab tizim jarayonlarini tahlil qilishda foydalanilgan (Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2025-yil 24-martdagi 1027/05-2-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi hisoblash resurslarini kamaytirish va aniqlikni oshirish orqali samaradorlikni baholash imkonini bergan;

kesishuvchi gipersharlar tizimlari bo‘yicha tanlanma obyektlarini guruhlarga ajratish algoritmidan IL–7823051524 “PARATRANSLATOR parallel korpusi asosida kontekstual tarjima uchun lug‘aviy platforma ishlab chiqish” innovatsion loyihasida so‘zlarni semantikasiga ko‘ra guruhlarga ajratishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 3-maydagi 04/11-5787-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi klaster tahlil qilish

natijalariga ko‘ra, atamalarning predmet sohalarga semantik yaqinligi ko‘rsatildi. Buning natijasida ma’no jihatdan yaqin so’zlarni aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy, 1 tasi scopus bazasida indekslangan va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan hamda xalqaro va respublika ilmiy amaliy konferensiyalarda 8 ta tezis chop etilgan. Shuningdek, yaratilgan kompyuter dasturiy mahsulotlari uchun 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 107 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va muhimligiga asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi belgilangan, dissertatsiya mavzusiga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilgan darajasi keltirilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi va tadqiqot natijalarining amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

I - bobda “**anglashning metrik algoritmlari**” sinf obyektlarini kompaktlik gipotezasi asoslash bilan bog‘liq savollar tadqiq qilinadi.

§1.1 da **yaqin qo‘shni (NN) va *k* yaqin qo‘shni (KNN)** algoritmlari qaralgan. NN bilan bog‘liq muammolar - to‘plamning minimal qoplamasi texnologiyasi bo‘yicha umumlashtirish qobiliyati nuqtayi nazaridan optimal sondagi shovqin obyektlarni izlash va pretsedentlar bazasini shakllantirish hisoblanadi. KNN ga nisbatan tadqiqotlar esa yaqin qo‘shnilar soni k ni tanlash, metrikalar, baholar, obyektlar turg‘unligi va informativ alomatlarni tanlashga qaratilgan.

Sinflar obyektlarining bog‘langanlik munosabatlari §1.2 da ko‘rilib, sinf obyektlarini o‘zaro kesishmaydigan guruhlarga bo‘lishda qo‘llanilgan. Guruh obyektlari kompaktlik o‘lchovlarini hisoblashda qo‘llaniladi.

Masalaning qo‘yilishi

Standart anglash masalasi qaraladi. Obyektlarning $E_0=\{S_1,\ldots,S_m\}$ to‘plami berilgan bo‘lib, u l ($l > 2$) o‘zaro kesishmaydigan $K_1,\ldots,K_l$ to‘plam ostilariga (sinfga) ajratilgan deb hisoblanadi. Obyektlar n ta turli toifadagi $X(n)=(x_1,\ldots,x_n)$ alomatlar bilan tavsiflanib, ularning ξ tasi interval shkalada (n - ξ) tasi nominal shkalalarda o‘lchanadi. Obyektlarning E_0 to‘plamida $\rho(x,y)$ metrika berilgan.

Obyektlarning E_0 to‘plamida $\rho(x, y)$ metrika bo‘yicha aniqlangan sinflarning chegaraviy obyektlarining to‘plami ostisini $L(E_0,\rho)$ orqali belgilaymiz. Tanlanmaning $S_i,S_j \in K_t$, obyektlari o‘zaro bog‘langan $(S_i \leftrightarrow S_j)$ hisoblanadi agar $\{S \in L(E_0,\rho) | \rho(S,S_i) < r_i$ и $\rho(S,S_j) < r_j\} \neq \varnothing$ bo‘lsa, bu yerda $r_i(r_j)$ $\rho(x,y)$ metrika bo‘yicha $S_i(S_j)$ dan CK_t ($CK_t = E_0 \setminus K_t$) ga eng yaqin obyektgacha bo‘lgan masofa $t=1,\ldots,l$ bir biri bilan bog‘langan hisoblanadi, agar quyidagi shart bajarilsa:
bu yerda.

$G_{tv} = \{S_{v_1},\ldots,S_{v_c}\}$, $c \geq 2$, $G_{tv} \subset K_t$, $v < |K_t|$ to‘plam bog‘langan obyektlar to‘plami bo‘lib, u K_t sinfidagi bog‘langan obyektlarni ifodalaydi, agar ixtiyoriy $S_{v_i}, S_{v_t} \in G_{tv}$ obyektlar uchun yo‘l mavjud bo‘lsa $S_{v_i} \leftrightarrow S_{v_k} \leftrightarrow \ldots S_{v_l}$. Obyekt $S_i \in K_t$, $t=1,\ldots,l$ bir elementdan iborat guruhga tegishli bo‘lib va u bog‘lanmagan deb hisoblanadi, agar har bir $S_j \neq S_i$ и $S_j \in K_t$ obyekt uchun $S_i \leftrightarrow S_j$ yo‘li mavjud bo‘lmasa. Har bir K_t, $t=1,\ldots,l$ sinfi uchun bog‘langan va bog‘lanmagan obyektlar to‘plamidan eng kichik kesishmaydigan guruhlar sonini aniqlash talab qilinadi.

Minimal guruhlar sonini aniqlashda, bog‘langan va bog‘lanmagan obyektlar sinflari uchun $\rho(x,y)$ metrika bo‘yicha berilgan $L(E_0,\rho)$ – chegaraviy obyektlar to‘plam ostisini va obyektlarni binar fazoda tasvirlashdan foydalaniladi. Sinf qobiqlarini ajratish uchun har bir $S_i \in K_t$, $t=1,\ldots,l$ obyekt uchun $\rho(x,y)$ metrika bo‘yicha tartiblangan ketma-ketlik quriladi.

$$S_{i_0}, S_{i_1}, \ldots, S_{i_{m-1}}, S_i = S_{i_0}. \quad (1)$$

Deylik $S_{i_\beta} \in CK_t$, S_i ga K_t sinfga kirmaydigan (1) dan eng yaqin obyekt. $O(S_i)$ orqali markazi S_i da bo‘lgan $r_i = \rho(S_i, S_{i_\beta})$ radiusdagi barcha $\rho(S_i, S_{i_\tau}) < r_i$, $\tau = 1,\ldots,\beta$-1 obyektlarni belgilaymiz. $O(S_i)$ da doim bo‘sh bo‘lmagan obyektlar to‘plam ostisi mavjud

$$\Delta_i = \left\{ S_{i_\alpha} \in O(S_i) \,|\, \rho(S_{i_\beta}, S_{i_\alpha}) = \min_{S_{i_\tau} \in O(S_i)} \rho(S_{i_\beta}, S_{i_\tau}) \right\} \quad (2)$$

(2) bo‘yicha sinf qobiq obyektlariga tegishliligi $L(E_0,\rho) = \bigcup_{i=1}^{m} \Delta_i$ da aniqlanadi.

Obyektlar o‘rtasidagi bog‘lanish munosabatlarining xususiyatlari quyidagilardir:

- E_0 tanlanma faqat bitta va aniq sonli kesishmaydigan obyektlar guruhlariga bo‘linadi;
- biron guruhdagi ixtiyoriy S_i, S_j obyektlar o‘rtasida har doim zanjir qurish mumkin $S_i \leftrightarrow S_k \leftrightarrow \ldots \leftrightarrow S_c$.

Obyektlarni bog‘laydigan zanjirlarni xilma-xil to‘plamlarini $R(S_i,S_j)$ orqali belgilaymiz $S_i, S_j \in G \cup K_2$, $|G| \geq 2$. Eng qisqa yopiqmas yo‘lni(EQYY) tanlash funksionalni optimallashtirish sifatida qaraladi

$$z(S_i, S_j) = \min_{\rho(S_i,S_j)} \sum_{S_u,S_v \in R(S_i,S_j)} \rho(S_u, S_v). \quad (3)$$

Sinf obyektlarini o‘zaro kesishmaydigan guruhlarga bo‘lishdan maqsadlari quyidagilar:

- sinflar va to‘liq tanlanma obyektlarining kompaktligini hisoblash va tahlil qilish;
- o‘rgatuvchi tanlanmani obyektlar - etalon bilan minimal qoplamasini izlash;
- klaster tahlilning sifatini baholash.

Quyidagi keltirilgan 1- jadvalda “*Australian*” berilganlarida kompaktlikka qo‘shgan hissasi va eng qisqa yopiqmas yo‘l (EQYY) bo‘yicha (3) guruhdagi masofalarni hisoblash bo‘yicha eksperiment natijalari keltirilgan.

1-jadval. Dastlabki alomatlar fazosida berilganlarni tahlili natijalari

Metrika	Guruhdagi obyektlar soni	Sinf nomeri i =	Kompaktlikni hissasi $\frac{\lvert G\rvert^2}{\lvert K_i\rvert^2}$	EQYY da hajmi
Evklid	18	1	0,1258	883,18
	13	1	0,0656	1108,33
	32	2	0,1604	281,54
	10	2	0,0156	227,33
	15	1	0,0873	1384,88
Juravlyov	22	1	0,1724	441,82
	23	1	0,1884	98686,39
	145	2	0,8941	2582,58
	37	2	0,0582	652,24
	9	2	0,0034	682,09

1- jadval tahlil natijalariga bo‘yicha quyidagi xulosalarni qilish mumkin

- Kompaktlikka qo‘shilgan hissaning qiymatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri guruhdagi obyektlar soniga bog‘liq;
- EQYY uzunligi guruhlardagi obyektlar soniga bevosita bog‘liq emas. Masalan, K_1 sinfdagi (1-jadvalga qarang) 18 va 13 ta obyektdan iborat ikki guruh uchun kompaktlikka qo‘shilgan hissa qiymatlari mos ravishda 0,1258 va 0,0656 ga teng, EQYY uzunligi esa mos ravishda 883,18 va 1108,33 ga teng bo‘ldi.

Kompaktlik o‘lchovlari va ularni hisoblash usullari §1.3da tavsiflangan. Taklif etilgan kompaktlik o‘lchovi va algoritmlarning umumlashtirish qobiliyati o‘rtasidagi umumiylik, o‘rgatuvchi tanlanmadagi obyektlar to‘plamida klaster tuzilmalarni aniqlash va qo‘llashdan iborat bo‘ladi. O‘lchov qiymatining yagonaligi sinf obyektlarini o‘zaro kesishmaydigan guruhlar usuli bilan kafolatlanadi.

O‘rgatish sifati nuqtayi nazaridan klaster tuzilmani qo‘llashga talab quyidagilardan iborat:

– shovqin obyektlarni aniqlash va ularni o‘chirish;

– tanlanmani sinflarga korrekt bo‘lishni ta‘minlaydigan, shovqin obyektlarsiz tanlanmaning obyektlar etalonlar bilan minimal qoplamasini ajratish.

Aytaylik, o‘rgatuvchi tanlanmani bog‘langanlik munosabati bo‘yicha har bir $K_i \subset E_0$ sinf uchun, o‘zaro kesishmaydigan $G_{i1},...,G_{i\mu}$ guruhlarga bo‘lingan, bunda sinflardan $D_i \subset K_i$ shovqin obyektlari o‘chirilgan bo‘lsin. Shovqin obyektlarni o‘chirishdan maqsad – anglash algoritmlarining umumlashtirish qobiliyatini oshirishdir.

Quyidagicha belgilash kiritamiz $m_{ij} = \left|G_{ij}\right|$, $j = 1,...,\mu$, $\sum_{j=1}^{\mu} m_{ij} = m_i$. Sinfni o‘zaro kesishmaydigan guruhlarga bo‘lish natijalarini ularning soni, vakilligi (obyektlar soni bo‘yicha) va shovqin obyektlarni o‘chirishni hisobga olgan holda tahlil qilish uchun kompaktlik bahosi kabi strukturaviy xususiyatdan foydalanishni taklif qilinadi

$$\Theta_i = \frac{\sum_{j=1}^{\mu} m_{ij}^2}{m_i^2}. \qquad (4)$$

Ma’lumki , (4) bo‘yicha Θ_i ni mumkin bo‘lgan qiymatlari $\left[\frac{1}{m_i};1\right]$ intervalda yotadi.

Agar G_{i1} guruh $K_i \cap \left(E_0 \setminus \bigcup_{j=1}^{l} D_j\right)$ dan tashkil topgan bo‘lsa, u holda $\Theta_i = 1$. O‘rgatuvchi tanlanmaning umumiy kompaktligini o‘rtacha baholash, umuman olganda quyidagi formula bilan aniqlanib

$$R\left(E_0 \setminus \bigcup_{i=1}^{l} D_i, \rho\right) = \left(\frac{\left|E_0 \setminus \bigcup_{i=1}^{l} D_i\right|}{m}\right) \frac{\sum_{i=1}^{l} m_i \Theta_i}{\left|E_0 \setminus \bigcup_{i=1}^{l} D_i\right|} = \frac{\sum_{i=1}^{l} m_i \Theta_i}{m} \qquad (5)$$

hisobdan chiqarilgan shovqin obyektlarning $\left(\frac{\left|E_0 \setminus \bigcup_{i=1}^{l} D_i\right|}{m}\right)$ hissasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. (4) va (5) qiymatlari o‘rgatuvchi tanlanma tuzilmasining bir xilligi (yoki bir xil emasligi) haqida vositali ma’lumot beradi. Guruhlar tarkibidagi obyektlar soni bo‘yicha o‘xshashlik qanchalik yaqin bo‘lsa, (4) qiymati $\frac{1}{m_i}$ ga, (5) esa $\frac{l}{m}$ ga shunchalik yaqinlashadi. $R\left(E_0 \setminus \bigcup_{i=1}^{l} D_i, \rho\right) = 1$ bo‘lsa $E_0 \setminus \bigcup_{j=1}^{l} D_j$ obyektlar guruhlarining soni sinflar soniga teng bo‘ladi. (4) va (5) bo‘yicha qiymatlar to‘plami mos ravishda $\left[\frac{1}{m_i};1\right]$ va $\left[\frac{l}{m};1\right]$ da sinflar va tanlanmaning umumiy kompaktlik o‘lchovi sifatida ko‘rib chiqilishi taklif etiladi. Yuqorida

ko‘rsatilgan intervallardagi kompaktlik o‘lchovlari qiymatlari ma’lumotlar bazalaridagi yashirin qonuniyatlarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Tasniflangan obyektlar to‘plami va anglash algoritmlari to‘plami o‘rtasidagi bog‘liqlik kompaktlik gipotezasi shaklida taxmin qilinadi. Kompaktlik tushunchasini noaniq talqin qilish odatda obyektlar o‘rtasidagi yaqinlik o‘lchovlarini tanlash va alomatlar fazosini o‘zgartirish bilan bog‘liq. Kompaktlikni o‘lchash uchun bir ma’noli talqinni ta’minlaydigan birliklar (o‘lchovlar) tanlash masalasi dolzarbdir.

Obyektning turg‘unligi tushunchasi tabiiy ravishda *k* eng yaqin qo‘shnilar asosida optimal yaqinlikni hisoblash protsedurasidan kelib chiqadi va bu holda u obyektning o‘zi bilan bir xil sinfdagi obyektlar orasidagi joylashuvini tavsiflovchi sifat ko‘rsatkichi sifatida tushuniladi. Obyektning λ_i^j turg‘unligi $S_i \in K_j, j = \overline{1,l}$, $i = \overline{1,m}$, K_j sinfda quyidagicha aniqlanadi:

$$\lambda_i^j = \frac{d_i^j}{2\min\limits_{1\le j\le l}\left|K_j\right| - 3}\ , \qquad (6)$$

bu yerda d_i^j — E_0 dagi S_i ga eng yaqin bo‘lgan *k* ta obyektlar soni hodisalar soni, $k = 1,...,2\min\limits_{1\le j\le l}\left|K_j\right| - 3$, ko‘pchiligi asosan $K_j \cap E_0$ sinfiga tegishli obyektlar tashkil qiladi. Ko‘rinib turganidek, $\lambda_i^j \subset [0,1]$.

Obyektlarning turg‘unligi informativ alomatlar to‘plamlarini tanlash, obyektlar orasidagi yaqinlik o‘lchovlarini aniqlash va alomatlar fazosini o‘zgartirish uchun foydalanish mumkin. Turli tuzilishga ega berilganlar mavjudligi muammosini hal qilishda mumkin bo‘lgan yondashuvlardan biri — berilganlarni o‘zgartirish orqali ularni berilgan algoritmga moslashtirishdir. Shubhasiz, berilganlarni shunday o‘zgartirishni topish kerakki, undan so‘ng ular anglash algoritmlari modeli talablariga maksimal darajada moslashadi.

2-jadvalda *Australian* tanlanmasi asosida turg‘unlik ko‘rsatkichi va kompaktlikning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqamiz. Qavs ichida obyektlarning o‘zaro kesishmaydigan guruhlari soni ko‘rsatilgan.

2 - jadval . Dastlabki berilganlarda turg‘unlik va kompaktlik ko‘rsatkichlari

Metrika	Sinfdagi turg‘unlik		Sinfdagi kompaktlik	
	K_1	K_2	K_1	K_2
Yevklid	0,3006	0,9690	0,0273(126)	0,0435(105)
Chebishev	0,2733	0,9676	0,0293(113)	0,0882(91)
Juravlyov	0,3163	0,9755	0,0297(119)	0,1603(87)

2 - jadval natijalarini tahlil qilish orqali sinflardagi kompaktlik va turg‘unlik o‘rtasida bog‘liqlikni ko‘rishimiz mumkinki.

II-bobda **Algoritmni o‘rgatish uchun pretsedentlar bazasini shakllantirish** qaraladi. O‘rgatuvchi tanlanmani tsenzuralashtirish – bu mashinali o‘rgatish

modellari uchun ishlatiladigan o‘rgatuvchi tanlanmadan ma’lum obyektlarni cheklash yoki olib tashlash jarayonidir.

Kompaktlikni baholash uchun ikkita o‘lchov taklif etiladi:

1. Obyektlar orasidagi munosabatlar tuzilmasini (0;1] intervalida (5) bo‘yicha baholash;
2. Anglash algoritmlarining umumlashtirish qobiliyatini baholash.

(5) bo‘yicha ruxsat etilgan qiymatlar to‘plami (0;1] intervalida har bir sinfdagi guruhlar soni va ularning quvvatiga bog‘liq. 2 o‘lchov tanlanmadagi shovqin obyektlarni chiqarib tashlagan holda, minimal qoplamaga ega bitta etalon obyekt tomonidan jalb qilinadigan o‘rtacha obyektlar soni sifatida aniqlanadi. Ushbu o‘lchov algoritmlarning umumlashtirish qobiliyatini baholashda mashhur kross-validayatsiya usuliga muqobil sifatida taklif etiladi.

Shovqin obyektlar olib tashlangandan so‘ng natijada ularning soni va tarkibi chegaraviylar tuzilmasini, qoplama etalonlari to‘plamining quvvatini o‘zgartiradi. Qoplama etalonlarining soni o‘rgatuvchi tanlanmaning vakillik darajasi ko‘rsatkichi hisoblanadi.

§2.1 da **masalaning qo‘yilishi**. **Kompaktlik o‘lchovi asosida regulyarizatsiya qilish** muhokama qilinadi**.**

Standart shakldagi anglash masalasini qaraymiz. Faraz qilamizki, *m* obyektlar to‘plami berilgan $E_0=\{S_1,\ldots,S_m\}$ va ular *l* ta o‘zaro kesishmaydigan $K_1,...,K_l$ sinflarga bo‘lingan. Obyektlar tavsifi *n* xil turdagi alomatlar yordamida amalga oshiriladi, ulardan ξ alomat interval shkalalarida, n - ξ alomat esa nominal (nomlanadigan) shkalalarda o‘lchanadi. Obyektlar to‘plamida $\rho(x,y)$ metrika berilgan.

To‘plamlar uchun belgilashlarni kiritamiz:

$$B(E,\rho)=\left\{S\in E\middle|\rho(S_i,S)=\min_{S_i\in K_j,S_d\in CK_j}\rho(S_i,S_d)\right\}$$ – sinf chegaraviy obyektlari;

$T\subset B(E_0,\rho)$ – E_0 to‘plamda $\rho(x,y)$; $E=E_0\setminus T$ metrika bo‘yicha aniqlanadigan shovqin obyektlar. *E* to‘plamda aniqlangan, obyektlar bog‘liqligi munosabatlari strukturasini shakllantiramiz.

Faraz qilamizki, *E* to‘plamida minimal qoplama to‘plami E_{ob} ni shakllantirish va kompaktlik o‘lchovini hisoblash uchun ochko‘z algoritm aniqlangan.

$$\mu(E,\rho)=|E|/|E_{ob}| \qquad (7)$$

$S\in E_{ob}\cap K_t$ etaloniga yaqinlik $\rho_s(x,y)=\alpha_s\rho(x,y)$ lokal metrika bo‘yicha hisoblanadi, bu yerda α_s parametri $E\cap CK_t$ chegaraviy obyektlari asosida aniqlanadi. Kompaktlik o‘lchovi (7) *E* to‘plamidagi bitta etalon tomonidan tortib turadigan obyektlarning o‘rtacha soni sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu etalonlar minimal qoplama to‘plami E_{ob} dan olinadi.

Shovqin obyektlar to‘plami *T* ning quvvatini va uning tarkibini aniqlash talab qilinadi, bunda

$$\mu(E,\rho)=\max_{T\subset E_0}\mu(E_0\setminus T,\rho). \quad (8)$$

O‘rgatuvchi tanlanmaning minimal qoplamasi etalonlarini shakllantirish jarayoni quyidagi bosqichlarni ketma-ket bajarish orqali amalga oshiriladi:

- Berilgan $\rho(x,y)$ metrika bo‘yicha sinflarning chegaraviy obyektlari $B(E_0,\rho)$ to‘plamini ajratib olish;
- Shovqin obyektlarni $T\subset B(E_0,\rho)$ chegaraviy obyektlar to‘plamidan topish va olib tashlash;
- $E=E_0\setminus T$ bo‘yicha chegaraviylar orqali bog‘liqlik munosabatiga asoslanib, sinf obyektlarini o‘zaro kesishmaydigan guruhlarga ajratish;
- Har bir guruh uchun etalonlar yordamida minimal qoplamani shakllantirish.

§2.2 da **Sinflar orasida nisbiy chekinish parametrini tanlash** anglash aniqligini oshirish yo‘llari tavsiflanadi. Chegaraviy obyektlar to‘plamida $B=B(E_0,\rho)$ juftliklar to‘plamini shakllantiriladi $BG=\{(S_i,S_j)\}$, $S_i\in K_t\cap B$, $t\geq 2$, $S_j\in CK_t\cap B$, $\rho(S_i,S_j)=\min\limits_{S_v\in B\cap CK_t}\rho(S_i,S_v)$. $(S_i,S_j)\in BG$ uchun belgilashni kiritamiz

$$r(S_i)=\rho(S_i,S_j),\ d(S_i)=\rho(S_i,S_v),$$

bu yerda $S_\mu=\arg\min\limits_{S_a\in E_0\cap CK_t\setminus\{S_j\}}\rho(S_k,S_a)$.

$\frac{r(S_i)}{d(S_i)}<\lambda, 0<\lambda<1$ munosabati $S_i\in K_t\cap B$ obyektni shovqin obyektlar to‘plamiga tegishliligini zarur sharti sifatida qaraladi. Yetarli sharti quyidagicha

$$\frac{r(S_i)}{d(S_i)}<\lambda \quad and \quad \frac{r(S_j)}{d(S_j)}\geq\lambda\ . \quad (9)$$

Chegaraviy $S_i\in K_1$ obyektni $r(S_i)$, $d(S_j)$, $d(S_i)$ masofalar munosabatlari bo‘yicha $E_0=K_1 U K_2$ tanlanmada shovqin obyektlar to‘plamiga tegishliligini aniqlash 1-rasmda tasvirlangan.



1 - rasm. Chegaraviy $S_i\in K_1$ obyektni $r(S_i)$, $d(S_j)$, $d(S_i)$ masofalar munosabatlari bo‘yicha shovqin obyektlar to‘plamiga tegishliligi

Regulyarizator (koeffitsient) parametri sifatida (9) bo‘yicha aniqlanadigan λ qiymati, fiksirlangan faktorlarda kompaktlikni (8) bo‘yicha ekstremal qiymatlarini

izlash uchun qo‘llaniladi. Obyektlar munosabatlari tuzilmalarini o‘zgartiruvchi faktorlarni(obyektlar o‘rtasidagi masofalar o‘lchovi, normirovka usuli, alomatlar to‘plamlarining tarkibi v.h.k) tanlashning samaradorligi haqidagi qaror odatda hisoblash eksperimenti natijalari bo‘yicha qabul qilinadi.

3-jadval. German tanlanmasida Juravlyov metrikasi bo‘yicha regulyarizatsiya koeffitsientiga bog‘liq holda shovqin va etalon obyektlarni tanlash.

Regulyarizatsiya koeffitsienti	Obyektlar soni		(8) etalon bo‘yicha o‘rtacha qiymat
	shovqinlar	etalonlar	
0,5	42	267 (126, 141)	3,4373
0,6	60	259 (120, 139)	3,4116
0,7	54	259 (112, 147)	3,4553
0,8	42	260 (114, 146)	3,5299
0,9	27	277 (127, 150)	3,4178

German tanlanmasi uchun (3-jadvalga qarang) optimal yechim sifatida regulyarizatsiya koeffitsienti 0,8 bo‘lganda 42 ta shovqin obyektlarni o‘chirish 260 etalonni tanlash tavsiya etiladi.

Shovqin obyektlar to‘plamining xilma-xilligi (3-jadvalga qarang) regulyarizatsiya koeffitsienti tanlovi bilan bog‘liq. Bu tasdiqning namoyon qilish uchun 4-jadvalda koeffitsientning turli qiymatlarida olingan to‘plamlar kesishmasidagi umumiy obyektlarning mavjudligi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

4 - jadval. To‘plamlar kesishmasida umumiy obyektlar soni

Regulyarizatsiya koeffitsienti	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9
0,5	0	26	12	7	7
0,6	26	0	35	22	17
0,7	12	35	0	33	22
0,8	7	22	33	0	26
0,9	7	17	22	26	0

Spambase tanlanmasida o‘tkazilgan tajribada dastlabki 4601 ta obyekt soni 4204 taga kamaytirildi. Ulardan 2528 ta obyekt 1-sinfga, 1676 tasi esa 2-sinfga tegishli. Ikkala sinfda kesishgan obyektlar olib tashlandi va har bir sinfdagi bir-biriga o‘xshash obyektlardan faqat bittadan vakil qoldirildi.

Etalon obyektlarni tanlash samaradorligini tekshirish uchun Spambase ma’lumotlar to‘plamidagi 4204 ta obyekt teng kuchga ega ikkita tanlanmaga ajratildi. Bu ajratishda har bir sinfdagi obyektlarning indekslari juft va toq tartibda taqsimlandi. Har bir tanlanma (Chet va Nechet) o‘qitish va nazorat uchun ishlatildi. Ikkala tanlanma bo‘yicha pretsedentlarni tanlash natijalari 4-jadvalda keltirilgan. Ushbu pretsedentlar minimal qoplama etalonlari hisoblanadi. Ularni shakllantirishda [0;1] oralig‘ida ma’lumotlar tavsiflari bo‘yicha masofalarni hisoblash uchun lokal metrikalar qo‘llanilgan.

4 - jadval. Chet va Nechet tanlanmasi bo‘yicha pretsedentlarni tanlash natijalari

Metrika	Yevklid		Chebishev	
Tanlanma	Chet	Nechet	Chet	Nechet

Regulyarizatsiya koeffitsienti		0,7	0,5	0,9	0,8
Obyektlar soni	shovqinlar	41	15	55	65
	etalonlar	223 (113, 110)	246 (122, 124)	176 (159, 17)	210 (137, 73)
(8) bo‘yicha o‘rtacha etalon		9,0619	8,4232	11,3264	9,4000

5 - jadval. Yevklid metrikasi bo‘yicha anglash aniqligi

Tanlanma bo‘yicha pretsedentlar	Nazorat tanlanma	
	Chet	Nechet
Chet	–	88,20 (87,01)
Nechet	88,73(88,63)	–

5-jadvalning birinchi qatorida 246 ta etalondan iborat pretsedentlar bazasi (4-jadval) Chet tanlanmadan olingan 2102 ta obyektni test qilish uchun ishlatiladi. Xuddi shunday, ikkinchi qatorida Nechet tanlanmadan olingan 223 ta etalondan iborat pretsedentlar bazasi Chet tanlanmadan olingan 2102 ta obyektni test qilish uchun qo‘llaniladi. Qavs ichida keltirilgan 88,63% va 87,01% aniqlik ko‘rsatkichlari lokal metrikalar qo‘llangan holdagi pretsedentlar bazasiga nisbatan pastroq natijalardir. Ammo minimal qoplama etalonlari bo‘yicha algoritm hisoblash murakkabligi bir necha barobar kamaygan.

Ushbu ishda shovqin obyektlarni klaster tahlili uchun tanlash texnologiyasining maqsadi quyidagilardan iborat:

- sinflar tarkibini to‘g‘rilash uchun shovqin obyektlarni aniqlash;
- bog‘liqlik munosabatlariga asoslanib sinflar obyektlarini guruhlarga ajratish;
- dastlabki berilganlarda yashirin qonuniyatlarni izlash.

Chegaradagi obyektni shovqin obyektlar to‘plamiga kiritish (yoki kiritmaslik) to‘g‘risidagi qaror, ushbu obyektning o‘z sinfidagi va sinfdan tashqaridagi obyektlarga bo‘lgan eng yaqin ikki masofasining nisbati asosida qabul qilinadi.

Tahlil qilish uchun bunday qaror qabul qilishga asos bo‘ladigan shartlarni aniqlash talab qilinadi. Klaster tahlilida chegaradagi obyekt bir guruhdan boshqasiga o‘tish uchun nomzod sifatida ko‘riladi. Tushuntirish uchun (9)-dagi kabi belgilashlar qo‘llaniladi. $\frac{r(S_i)}{d(S_i)} < 1$ munosabat $S_i \in K_t \cap B$ obyektni shovqin obyektlar to‘plamiga tegishli ekanligini zarur sharti sifatida qaraladi.

Yetarli sharti esa quyidagicha

$$\frac{r(S_i)}{d(S_i)} < 1 \quad and \quad \frac{r(S_j)}{d(S_j)} \geq 1. \qquad (10)$$

Chegaraviy $S_i \in K_1$ obyektni $r(S_i)$, $d(S_j)$, $d(S_i)$ masofalar munosabatlari bo‘yicha $E_0 = K_1 \cup K_2$ tanlanmada shovqin obyektlar to‘plamiga tegishliligini aniqlash

